


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida viloyatda 3101 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 413 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1543 ta (6,7%)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 24434 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1220	1146	228
 Sanoat	2537	2402	445
 Qurilish	1596	1486	228
 Savdo	3766	3550	556
 Tashish va saqlash	607	574	81
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	958	873	217
 Axborot va aloqa	241	222	35
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	345	337	52
 Boshqa turlari	4495	4247	457



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 15765ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,9% savdo, 16,1% sanoat, 10,1% qurilish, 7,7% Qishloq va o'rmon xo'jaligi, 6,1% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9% tashish va saqlash, 2,2% axborot va aloqa, 1,5% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 28,5% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Urganch shahri (3956 ta), Urganch (1623 ta), Xiva tumani (1509 ta) va Xiva shahri (1421 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (588 ta), Shovot (773 ta) hamda Bog'ot (783ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.






+ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 14837 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1163 ta (8,5%)ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9% savdo, 16,2% sanoat, 10,0% qurilish, 7,7% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,9% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9% tashish va saqlash, 2,3% axborot va aloqa, 1,5% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 28,6% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Urganch shahri (3576 ta), Urganch tumani (1529 ta), Xiva tumani (1408 ta) va Xiva shahri (1368 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (567 ta), Shovot (683 ta) hamda Bog'ot (757 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.01.2017 y.

• 13342

01.01.2018 y.

• 13674

01.01.2019 y.


• 14837



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2299 ta korxon va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 35,6%ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxon va tashkilotlar Urganch shahri (590 ta), Urganch tumani (270 ta), Xiva shahri (210 ta) va Xonqa tumani (186 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (80 ta), Gurlan (107 ta) hamda Yangiariq (121 ta) tumanlarida korxon va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxon va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (556 ta), sanoat (445 ta), qurilish (228 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (228 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (35 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (52 ta) hamda tashish va saqlash (81 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	1561	100	1695	100	2299	100
Savdo	465	29,8	360	21,2	556	24,2
Sanoat	345	22,1	388	22,8	445	19,4
Qurilish	149	9,5	164	9,7	228	9,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	136	8,7	142	8,4	217	9,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	124	7,9	198	11,7	228	9,9
Tashish va saqlash	54	3,5	78	4,6	81	3,5
Axborot va aloqa	43	2,8	32	1,9	35	1,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	36	2,3	54	3,2	52	2,3
Boshqa turlari	209	13,4	279	16,5	457	19,9

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 11887ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4068 ta, oilaviy korxonalar – 1229ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6304ta va boshqalar 286 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 71 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga yoki 39,2% ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Janubiy Koreya Respublikasi va Turkmanistonhissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 54 tasi qo'shma korxonalar, 17 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar (22 ta yoki jamidagi ulushi 31,0%), Shovot(11 ta yoki 15,5%) va Urganch tumanlari (7 ta yoki 9,9%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xonqa(1 ta yoki 1,4%), Yangibozor(1 ta yoki 1,4%), Gurlan(2 ta yoki 2,8%) va Xazorasp tumanlari(2 ta yoki 2,8%) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 42 tani (59,2%), savdoda 12 tani (17,0%) hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida esa 4 tani (5,6%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 tani (1,4%), tashish va saqlashda 2 tani (2,8%), qurilishda 3 tani (4,2%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 tani (5,6%) va boshqa faoliyat turlarida esa 3 tani (4,2%) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni

saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Axborot va aloqa sohasida faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar mavjud emas.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 23tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Tukmaniston – 5 ta, Turkiya Respublikasi-5 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2 ta va Xitoy Xalq Respublikasi –2 ta va boshqa davlatlarda 4 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (9 ta), savdo (5 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligida (3 ta), qurilish (1), tashishvasaqlash (1), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1) va boshqa faoliyat turlari (3 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	6	60,0	9	39,1
Savdo	2	20,0	5	21,7
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1	10,0	3	13,0
Qurilish	1	10,0	1	4,4
Tashish va saqlash	-	-	1	4,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	1	4,4
Boshqa turlari	-	-	3	13,0



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.

2019 yil 1 yanvar holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11815 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 8,4% ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 2909 tasi (24,6%) Urganch shahri, 1271 tasi (10,8%) Urganch tumani, 1245 tasi (10,5%) Xiva shahri hamda 1214 tasi (10,3%) Xiva tumani hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11815 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3529 tasi (29,9%) – savdo, 2377 tasi (20,1%) - sanoat, 1476 tasi (12,5%) - qurilish, 1124 tasi (9,5%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 860 tasi (7,3%) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 568 tasi (4,8%) - tashish va saqlash, 270 tasi (2,3%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 205 tasi (1,7%) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1406 tasi (11,9%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2009 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 28,4%ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (542 ta), Urganch tumani (244 ta), Xiva shahri (180 ta) va Xonqa tumani (153 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangibozor (63 ta), Yangiariq (97 ta) hamda Gurlan (100 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (555ta), sanoatda (445ta), qurilishda (228ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (224ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (35 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (51 ta) hamda tashish va saqlashda (81 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




2019 yilning 1 yanvar holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 1301 tani tashkil etib, ulardan 1229 tasi yoki 94,5% faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 43,6% ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,0% yoki 356 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 28,3% yoki 348 tasi sanoat, 20,4% yoki 251 tasi savdo, 9,0% yoki 111 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5% yoki 18 tasi qurilish, 1,1% yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9% yoki 11 tasi axborot va aloqa, 0,6% yoki 8 tasi tashish va saqlash hamda 9,2% yoki 113 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat, eng kami esa sog'liqni tashish va saqlash axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 1811 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.


Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -6711taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 1559 ta, 2017 yilda 1545 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 1811 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 6711 taga tugatish kamaygan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Agarda tugatilgan 811 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 250 tasi (30,8%) savdo, 141 tasi (17,4%) sanoat, 97 tasi (12,0%) qurilish, 85 tasi (10,5%) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 61 tasi (7,5%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 30 tasi (3,7%) tashish va saqlashda, 17 tasi (2,1%) axborot va aloqada, 14 tasi (1,7%) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 116 tasi (14,3%) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	<i>Soni (birlikda)</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>	<i>Soni (birlikda)</i>	<i>Jamiga nisbatan, %da</i>	<i>Farqi,(+,-)</i>
Jami	1328	100	811	100	-517
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon vabaliq xo'jaligi	119	9,0	85	10,5	-34
sanoat	172	12,9	141	17,4	-31
qurilish	119	9,0	97	12,0	-22
savdo	308	23,2	250	30,8	-58
tashish va saqlash	42	3,1	30	3,7	-12
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	53	4,0	61	7,5	8
axborot va aloqa	28	2,1	17	2,1	-11
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	174	13,1	14	1,7	-160
boshqa turlari	313	23,6	116	14,3	-197

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 786 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -194 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 249 tasi (31,7%) savdo, 139 tasi (17,7%) sanoat, 97 tasi (12,3%) qurilishda, 85 tasi (10,8%) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 60 tasi (7,6%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 30 tasi (3,8%) tashish va saqlashda, 16 tasi (2,1%) axborot va aloqada, 14 tasi (1,8%) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 96 tasi (12,2%) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Urganch tumanida -96 ta, Xiva tumanida -94 ta, Urganch shahrida -74 ta hamda Bog'ot tumanida -25 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.



Statistik registrarni yuritish bo'limi
Tel.:(0362)22-4-65-11